
32 NAFAR “AYOLLAR DAFTARI” GA KIRITILGAN XOTIN-QIZLARGA SUBSIDIYA ASOSIDA TIKUV MASHINALARI TOPSHIRILDI

Toshloq tumanida hokim yordamchilari tomonidan mahallalarda o'tkazilgan xatlovlarda ishsiz xotin-qizlar aniqlanib, ularning bandligini ta'minlash borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Kuni-kecha tumandagi sektor rahbarlari, keng jamoatchilik vakillari ishtirokida tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ishsiz, ehtiyojmand xotin-qizlarga hokim yordamchilari tavsiyasi bilan subsidiya asosida 32 ta tikuv mashinasi topshirildi.

- Tikuvchilik hunarini egallaganman, lekin tikuv mashinam yo'qligi uchun bu ish bilan shug'ullana olmayotgan edim, - deydi Katta ko'cha mahallasida yashovchi Xurshidabonu Akbarova. - Yangi tikuv mashinasi sotib olishga esa imkonim yo'q edi. Subsidiya asosida menga berilgan tikuv mashinasida tikuvchilik faoliyatimi yo'lga qo'yaman.

2023-08-09 10:48:59